

20-Avgust, 2026-yil

**MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA KOMIL INSON
TARBIYASI**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Alimuxammadova Gulsevar Xaydar qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Insonning ma’naviy-axloqiy kamolotida milliy madaniyat, tarixiy xotira, ona tiliga hurmat, milliy an’ana va urf-odatlar bilan bir qatorda tinchlik, adolat, insonparvarlik, bag‘rikenglik, tenglik va o‘zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Globallashuv va raqamli axborot makoni sharoitida milliy o‘zlikni saqlagan holda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari asoslab beriladi. Maqolada komil inson tushunchasining zamonaviy mazmuni hamda yosh avlod tarbiyasini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy xulosalar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, komil inson, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, insonparvarlik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, ta’lim, yoshlar tarbiyasi.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании совершенной личности. Анализируется значение национальной культуры, исторической памяти, уважения к родному языку, традициям и обычаям, а также таких общечеловеческих ценностей, как мир, справедливость, гуманизм, толерантность, равенство и взаимное уважение. Раскрывается роль семьи, образовательных учреждений и социальной среды в формировании духовно-нравственных качеств личности. Особое внимание уделяется педагогическим возможностям воспитания молодого поколения в условиях глобализации и цифрового информационного пространства при сохранении национальной идентичности и уважении к общечеловеческим ценностям. Определяется современное содержание понятия совершенной личности и формулируются научно-практические выводы по совершенствованию воспитания молодежи.*

Ключевые слова: *национальные ценности, общечеловеческие ценности, совершенная личность, духовное воспитание, нравственное воспитание, национальная идентичность, историческая память, гуманизм, толерантность, патриотизм, образование, воспитание молодежи.*

Abstract: *This article examines the role of national and universal human values in the development of a well-rounded and morally mature person. It analyzes the importance of national culture, historical memory, respect for the native language, traditions and customs, as well as universal values such as peace, justice, humanism, tolerance, equality and mutual respect. The role of the family, educational institutions and social environment in shaping the spiritual and moral qualities of an individual is also discussed. Particular attention is paid to the pedagogical possibilities of educating the younger generation in the context of globalization and the digital information environment while preserving national identity and respecting universal human values. The article presents a modern interpretation of the concept of a well-rounded person and provides scientific and practical conclusions for improving youth education.*

Keywords: *national values, universal human values, well-rounded person, spiritual education, moral education, national identity, historical memory, humanism, tolerance, patriotism, education, youth development.*

Insoniyat taraqqiyoti tarixida qadriyatlar jamiyatning ma'naviy hayotini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib kelgan, har qanday jamiyat o'zining tarixiy tajribasi, madaniy merosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy ideallari orqali kelajak avlod tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida komil insonni tarbiyalash zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biridir. Qadriyat tushunchasi inson va jamiyat uchun muhim bo'lgan ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy mezonlarni ifodalaydi. Qadriyatlar insonning hayotiy qarashlari, xulq-atvori va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishga yordam beradi. Shaxsning qaysi qadriyatlarni ustuvor deb bilishi uning qarorlari va hayotiy pozitsiyasida namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlod turli madaniyatlar, g'oyalar va axborot manbalari bilan bevosita muloqot qilmoqda, u jarayon yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy merosga bo'lgan munosabat masalasini ham dolzarb qilib qo'yadi. Shuning uchun zamonaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muayyan xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, tili, urf-odatlar va an'analarida namoyon bo'ladi. Ular xalqning avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy tajribasini saqlash va davom ettirishga xizmat qiladi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari tarkibida kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, o'zaro yordam, mahalla va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, oilaga sadoqat, mehnatsevarlik va ilmga intilish kabi fazilatlar alohida o'rin tutadi. Milliy qadriyatlar yosh avlodning o'zligini anglashida muhim vositadir. O'z xalqining tarixini, madaniyatini va ma'naviy merosini bilgan yoshda milliy g'urur va Vatanga daxldorlik hissi shakllanadi. Bunday shaxs o'zining jamiyatdagi o'rnini anglashga va milliy taraqqiyotga hissa qo'shishga

intiladi. Biroq milliy qadriyatlarni asrash zamonaviy taraqqiyotdan voz kechish degani emas. Aksincha, milliy merosni zamonaviy ilm-fan, texnologiya va ta’lim yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga sharoit yaratish mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar barcha insonlar uchun umumiy bo‘lgan axloqiy va ijtimoiy mezonlarni anglatadi. Tinchlik, inson hayotini qadrlash, adolat, insonparvarlik, erkinlik, tenglik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamkorlik shular jumlasidandir. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy xususiyati shundaki, ular muayyan millat yoki hudud bilan chegaralanmaydi. Masalan, tinchlikka intilish yoki inson qadr-qimmatini hurmat qilish barcha jamiyatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish ularning boshqa xalqlar va madaniyatlarga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lishiga yordam beradi, bu esa jamiyatda bag‘rikenglik, hamkorlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish milliy o‘zlikni yo‘qotish degani emas. Shaxs o‘z milliy madaniyatini chuqur anglagan holda boshqa xalqlarning qadriyatlariga ham hurmat bilan munosabatda bo‘lishi mumkin. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir, milliy qadriyatlar shaxsga o‘zligini anglash imkonini bersa, umuminsoniy qadriyatlar uning dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, Vatanga muhabbat milliy qadriyat sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa xalqlar va mamlakatlarga hurmat umuminsoniy qadriyat sifatida qaralishi mumkin. Ushbu ikki jihatning uyg‘unligi insonning ham milliy, ham global miqyosda fikrlay oladigan shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida mazkur uyg‘unlikni ta’minlash muhim. O‘quvchilarga milliy tarix va madaniyatni o‘rgatish bilan birga, inson huquqlari, tinchlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot kabi tushunchalarni ham tushuntirish lozim, bunday yondashuv yoshlarni faqat o‘z madaniyatini qadrlaydigan emas, balki boshqa xalqlar madaniyatiga ham hurmat bilan qaraydigan, ochiq fikrli va ijtimoiy mas’uliyatli inson qilib tarbiyalash imkonini beradi, komil inson g‘oyasi Sharq mutafakkirlari ijodida muhim o‘rin egallagan. Abu Nasr Forobiy insonning baxt-saodatga erishishi va fozil jamiyatni shakllantirish masalalarini falsafiy jihatdan tahlil qilgan. Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasi va kamolotida bilim, axloq hamda sog‘lom turmush tarzining ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Alisher Navoiy asarlarida ham insonning ma’naviy kamoloti, adolat, saxovat, ilm, odob va insonparvarlik kabi fazilatlar keng yoritilgan. Uning qarashlarida insonning qadri uning boyligi yoki mansabida emas, balki yaxshi amallari va jamiyatga keltirgan foydasida namoyon bo‘ladi, zamonaviy pedagogik nuqtayi nazardan komil inson tushunchasini shaxsning intellektual, ma’naviy, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan uyg‘un rivojlanishi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday shaxs mustaqil fikrlaydi, o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyat bilan qaraydi, bilim olishga intiladi, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qiladi hamda jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga harakat qiladi. Qadriyatlar tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi. Bola dastlabki axloqiy tushunchalarni ota-ona va yaqinlarining kundalik xatti-harakatlari orqali o‘zlashtiradi. Oiladagi o‘zaro hurmat, mehr-

20-Avgust, 2026-yil

oqibat, halollik va mas’uliyat farzandning shaxsiy sifatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyaning eng samarali vositalaridan biridir. Oilada milliy an’analarni saqlash va yosh avlodga tushuntirish ham muhimdir. Bayramlar, oilaviy marosimlar, kattalarni e’zozlash, qarindoshlik munosabatlari va qo’ni-qo’shnilik an’analarining mazmunini tushuntirish orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati shakllanadi. Bunda tarbiya faqat nasihat bilan cheklanmasligi kerak. Farzandga mustaqil fikr bildirish, savol berish va o’z qarorini asoslash imkonini berish uning shaxsiy mas’uliyatini rivojlantiradi. Ta’lim muassasalari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning muhim ijtimoiy institutlaridan biridir. Ta’limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki bilimni hayotda to’g’ri qo’llay oladigan, axloqiy mas’uliyatga ega shaxsni shakllantirishdan ham iborat. Pedagog o’zining xulqi, muomala madaniyati va kasbiy mas’uliyati bilan o’quvchilarga namuna bo’ladi. O’qituvchining adolatli va xolis munosabati yoshlarning boshqalarga hurmat bilan qarashini shakllantiradi, dars jarayonida tarixiy shaxslar, buyuk mutafakkirlar va ma’rifatparvarlarning merosidan foydalanish ham samarali tarbiyaviy vosita bo’la oladi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa allomalarning ilmiy-ma’rifiy faoliyati yoshlar uchun ibrat manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, munozara, loyiha, muammoli vaziyat, rolli o’yin va guruhli ish kabi interfaol metodlar yoshlarning qadriyatlar haqidagi qarashlarini mustaqil shakllantirishga yordam beradi. Globallashuv sharoitida yoshlar turli madaniyat va qarashlar bilan tez-tez to’qnash keladi, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko’rsatmoqda va bu sharoitda yoshlarni axborotdan ongli va mas’uliyatli foydalanishga o’rgatish muhim. Media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko’nikmalari yoshga axborotning mazmunini tahlil qilish, ishonchli manbani ajratish va turli manipulyativ ta’sirlardan himoyalaniish imkonini beradi. Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya yoshlarning o’zligini anglashiga yordam beradi. Ammo bu tarbiya boshqa xalqlarga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirmasligi kerak. Aksincha, milliy o’zlikni anglash bag’rikenglik va boshqa madaniyatlarga hurmat bilan uyg’unlashishi lozim. Shu ma’noda zamonaviy komil inson — o’z milliy ildizlarini yaxshi biladigan, shu bilan birga dunyodagi boshqa xalqlar va madaniyatlarni hurmat qiladigan shaxsdir, milliy qadriyatlarning muhim ko’rinishlaridan biri vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik insonning o’z yurtiga bo’lgan muhabbati, uning ravnaqi uchun mas’uliyatni his qilishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishida namoyon bo’ladi. Yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirishda tarixiy xotira katta ahamiyatga ega. Ajdodlarning ilm-fan, madaniyat va davlat taraqqiyotiga qo’shgan hissasini o’rganish yoshlarda milliy faxr va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Biroq haqiqiy vatanparvarlik boshqa xalqlarni kamsitishni anglatmaydi. Aksincha, o’z Vatanini sevish bilan birga boshqa xalqlarni hurmat qilish umuminsoniy madaniyatning muhim belgisi hisoblanadi. Yoshlarning volontyorlik, ekologik tadbirlar, jamoat loyihalari va turli ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etishi ham fuqarolik mas’uliyatini rivojlantiradi. Qadriyatlar tarbiyasida faqat nazariy

ma'lumot berish yetarli emas. Yoshlar qadriyatlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganishi kerak. Masalan, “Halollik qanday vaziyatlarda namoyon bo'ladi?”, “Adolatli qaror qanday qabul qilinadi?”, “Boshqa insonning fikrini hurmat qilish nimani anglatadi?” kabi muammoli savollar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning axloqiy tafakkurini rivojlantiradi, tarbiya jarayonida shaxsiy namuna, ijobiy muhit va rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. Yoshning yaxshi xulqini e'tirof etish, uning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va mustaqil faoliyatga jalb etish ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Kitobxonlik shaxsning tafakkuri va ma'naviy dunyosini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Badiiy adabiyot insonni turli hayotiy vaziyatlar va insoniy kechinmalar bilan tanishtiradi. Ilmiy adabiyot esa bilim va dunyoqarashni kengaytiradi. Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish uchun kutubxona, ta'lim muassasasi va oila hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Kitob muhokamalari, adabiy kechalar, mutolaa loyihalari va ijodiy tanlovlar yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Avloniy kabi adiblarning asarlarida insoniy fazilatlar, milliy o'zlik va ma'naviy kamolot masalalari keng yoritilgan. Ularni o'rganish yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Komil insonni tarbiyalashda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

1. milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi ta'minlanishi kerak. Yosh o'z milliy qadriyatlarini bilishi va shu bilan birga boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qarashi lozim.
2. shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida har bir yoshning qiziqishi, qobiliyati va individual xususiyatlari hisobga olinishi zarur.
3. faollik va amaliy ishtirok ta'minlanishi kerak. Yoshlar tarbiyaviy jarayonning passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisi bo'lishi lozim.
4. oila, ta'lim va jamiyat hamkorligi yo'lga qo'yilishi kerak. Qadriyatlar tarbiyasi faqat bir tashkilot yoki shaxsning vazifasi emas.
5. zamonaviy axborot muhitidan oqilona foydalanish zarur. Yoshlarni raqamli makondagi ijobiy imkoniyatlardan foydalanishga va salbiy axborotlarni tanqidiy baholashga o'rgatish lozim.

Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Insonning komilligi uning faqat bilim darajasi bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy mas'uliyati, mustaqil fikrlashi va jamiyatga foydali faoliyati bilan belgilanadi, milliy qadriyatlar yosh avlodda o'zlikni anglash, tarixiy xotira, milliy g'urur va Vatanga daxldorlik hissini shakllantiradi. Umuminsoniy qadriyatlar esa insonparvarlik, adolat, tinchlik, bag'rikenglik, tenglik va o'zaro hurmat kabi fazilatlarini rivojlantiradi. Ularning uyg'unligi ma'naviy jihatdan yetuk, ochiq fikrli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida qadriyatlar tarbiyasiga yangicha

20-Avgust, 2026-yil

yondashuv zarur, yoshlarni milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga, ularni zamonaviy bilimlar, tanqidiy fikrlash va media savodxonlik bilan qurollantirish muhimdir. Komil inson tarbiyasida oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, ota-ona va pedagoglarning shaxsiy namunasi, yoshlar bilan ochiq muloqot, kitobxonlikni rivojlantirish va yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish tarbiya samaradorligini oshiradi. Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi asosida tarbiyalangan yosh avlod nafaqat o‘z xalqining ma’naviy merosini davom ettiradi, balki jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan komil shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. — Toshkent: Fan, 1976.
7. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — Paris: UNESCO, 2016.
8. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. — Paris: UNESCO, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari.